

# Maqola nomi: INTERNALIZATSIYA QILINGAN MIZOGINIYA: ongimiz qa'ridagi patriarxat

**Asl maqola nomi:** INTERNALIZED MISOGYNY: THE PATRIARCHY INSIDE OUR HEADS

**Muallif:** Maria Evteeva

**Manba:** Journal of Integrated Social Sciences, 2024 - 14(1): 82-108

**Nashriyot:**

**Doimiy havola:** [www.JISS.org](http://www.JISS.org)

---

Mazkur maqola Ph.D. candidate Maria Evteeva ruxsati bilan o'zbek tiliga tarjima qilindi. Ushbu ruxsat uchun samimiy minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Tarjima O'zbekistonda gender zo'ravonligiga qarshi kurashga qaratilgan mustaqil media-loyiha **Nemolchi.uz** tashabbusi doirasida amalga oshirildi. Ushbu loyiha jamiyatda strukturaviy zo'ravonlik, ijtimoiy adolat va ayollar huquqlari haqidagi bilimlarni keng jamoatchilikka, shu jumladan, o'zbek tilida ham yetkazishni maqsad qilgan.

**Tarjimon:** Nodira Ibrohimova

**Tarjima sanasi:** 2025-yil

Tarjima Shveytsariyaning O'zbekistondagi Elchixonasi ko'magida tayyorlangan.

---

Tarjimadan foydalanish shartlari:

Mazkur tarjimani erkin o'qish, ta'limiy va ilmiy maqsadlarda foydalanish mumkin, biroq bunda asl manba va asl nashrga havola ko'rsatilishi shart. Tarjimonning ismi va **Nemolchi.uz** loyihasi ko'rsatilishi ham maqsadga muvofiqdir.

# INTERNALIZATSIYA<sup>1</sup> QILINGAN MIZOGINIYA: ongimiz qa'ridagi patriarxat

Mariya Yevteyeva, magistr  
Balear orollari universiteti, Ispaniya

**Ilmiy rahbarlar:**  
Lukresiya Burjes, falsafa doktori  
Balear orollari universiteti, Ispaniya.  
Tomeu Sales Gelabert, falsafa doktori  
Balear orollari universiteti, Ispaniya.

## Annotatsiya

Mizoginiya - bu ayollarning erkaklarga qaraganda past maqomda ekanligi haqidagi ishonchga asoslangan nafratdir. Bu madaniy amaliyot hukmron erkaklar guruhining kuchini saqlab qolish uchun ayollarni kamsitish va ularni tobe etish orqali amalga oshiriladi (Findlay & Piggott, 2005).

Mizoginiyadan kelib chiqqan ichki seksizm esa ayollarning o'zlari va boshqa ayollarga nisbatan o'rganilgan seksistik xulq-atvorni qabul qilishida namoyon bo'ladi (Bearman va boshq., 2009). Bu holat ayollar orasida seksistik munosabatlarni abadiylashtiradi, erkaklar hukmronligidagi madaniyatni mustahkamlaydi va o'z jinsiga qarshi gorizontaal zulm orqali patriarxal tizimni qo'llab-quvvatlaydi.

Ushbu maqolada ichki mizoginiyaning psixologik zulm shakli sifatidagi kelib chiqishi ochib beriladi. Unda ayollarda ichki mizoginiyaning turli ko'rinishlari misollar orqali ko'rsatiladi hamda uning ayollarning ruhiy salomatligiga ta'siri va jamiyat uchun salbiy oqibatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, masalaning yechimlari sifatida psixologik o'z-o'zini anglash yo'li hamda Feministik terapiya nazariyasini qo'llash bo'yicha takliflar bayon etiladi.

<sup>1</sup> tashqaridan berilgan g'oya, qoidalar, qadriyatlar yoki xulq-atvor me'yorlarining inson ongiga kirib, uning ichki ishonchi va shaxsiy qarashlariga aylanishi jarayoni.

## KIRISH

Ijtimoiy fanlar sohasida feministik gender qarashning ahamiyati 1960-yillardan beri feminist olimlar tomonidan ta'kidlanib kelinmoqda. Xareveyning fikriga ko'ra, fan va uning metodologiyalari patriarxal hukmronlikdan ta'sirlangan bo'lib, tarixan ayollarning ozodligiga to'siq qo'yish uchun xizmat qilgan, chunki ular faqat jamiyatimiz tuzilmasidagi seksistik realliklarni aks ettiradi (Haraway, 1978). Hukmron guruh va ijtimoiy sinf g'oyalari jamiyat ichida ustuvor bo'lib qolishiga ko'ra (Marx & Engels, 1974), mavjud jinsiy me'yorlarda mujassam topgan dualistik og'ishlarni chuqur anglash va ongli tarzda tan olish orqaligina haqiqiy transformatsiya jarayoni boshlanishi mumkin.

Shu sababli, antropologiya, sotsiologiya, psixanaliz va psixologiya kabi G'arb modernligiga asoslangan fanlar inson tabiati haqida nazariyalar ishlab chiqib, nafaqat mavjud iyerarxik jinsiy tizimga ilmiy qonuniylik baxsh etadi, balki uning siyosiy mohiyatini ham chetlab o'tadi (Mendez, 2007). Demak, mavjud kuch va iyerarxiyalarni mustahkamlaydigan G'arb mustamlakachilik fanlari tarqatgan gender me'yorlarni tanqidiy o'rganish va buzish zaruriyatga aylanadi.

Gramshining nazariyasi tarixiy jarayonlar natijasida o'z-o'zini anglash g'oyasiga (Gramsci, 1971) asoslanib, tanqidiy ongni rivojlantirish orqali feministlar uchun patriarxatning tushunchaviy qaramog'idan chiqib, feministik nazariya va yondashuvlarni yaratish zarur (Haraway, 1978). Haqiqiy tenglikka asoslangan kelajakka faqat feministik ongni kengaytirish va ijtimoiy fanlar poydevorini qayta qurish orqali erishish mumkin. Audre Lord 1984-yildagi asarida ta'kidlaganidek: «Xo'jayinning qurollari hech qachon xo'jayinning uyini buzmaydi» (Lorde, 2007, 112-bet). Shuning uchun fanlar neytral bilim talabidan voz kechib, siyosiy jihatdan faol ijtimoiy amaliyot sifatida qayta tasavvur qilinishi zarur (Rouse, 1996). Ular orqali ezilganlarning huquqlarini himoya qiladigan tanqidiy yondashuvni tarbiyalash lozim.

Jamiyatda guruhlararo tengsizliklar zulm tizimlari orqali yaratiladi va saqlanadi (Marx & Engels, 1974). Ayniqsa, jins, irq yoki sinf bilan bog'liq farqlar odamlarni guruhlariga ajratish va ijtimoiy hokimiyatni majburiy saqlab turish uchun yetarli asos sifatida ishlatiladi (Bearman va boshq., 2009). Ichki zulm esa marginallashtirilgan guruh a'zolarining ezuvchi ishonchlar, munosabatlar va xatti-harakatlarni qabul qilishi hamda qo'llab-quvvatlashi orqali namoyon bo'ladi. Bu jarayon jabrlanganlarni ezuvchi tizimning haqiqiy hamkorlariga aylantiradi.

Jamiyatda odamlarni ajratib turadigan asosiy dualistik tushunchalardan biri - tayinlangan jinsdir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ta'rifiga ko'ra, «jins» insonlarning biologik va fiziologik xususiyatlarini anglatadi, «gender» esa ayollar,

erkaklar, qizlar va o'g'il bolalarning ijtimoiy qurilgan xususiyatlarini bildiradi (World Health Organization, n.d., 1-3-paragraflar). Keng qamrovli ilmiy ma'lumotlar erkak va ayollar o'rtasidagi xulq-atvoriy farqlarning biologik asosi yo'qligini ko'rsatadi (Bleier, 1984) hamda jins - bu maskulinlik va feminalik dualizmiga asoslangan ijtimoiy toifalash tizimidir (Kosut, 2012). Patriarxal ijtimoiy tuzilmada maskulinlik kuch, ustunlik va yuqori maqom bilan bog'lansa, feminalik kuchsiz ijtimoiy mavqe, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hokimiyatdan mahrumlik bilan bog'lanadi va bu ayollarni kamsitish va zulmga duchor etadi (Sakalli-Ugurlu, 2003).

Tarixiy jihatdan, ikki xil jinsli tizim madaniy qurilmalarni erkak va ayol xususiyatlari sifatida belgilab, zulmni kuchaytirdi. Bu jarayon iyerarxik munosabatlarni tabiiydek ko'rsatib, ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqishni qoralaydigan yoki jazolaydigan qoidalarni o'rnatdi (Bleier, 1984). Vittig (1982)ning ta'kidlashicha, «erkak» va «ayol» ijtimoiy toifalari aslida har doim siyosiy, iqtisodiy va ideologik tuzilmalar bilan chambarchas bog'liq ekanini yashirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, jins haqidagi ishonchlar va stereotiplar turli madaniyatlar va tarixiy davrlarda farq qilishi mumkin, ammo ular doim mavjud madaniy me'yorlar bilan uyg'un bo'lib qoladi (Worell & Remer, 1996).

Bliyer (1984) ta'kidlaganidek, «ayol tabiati» tushunchasi - g'amxo'rlik, passivlik, bog'liqlik, kuchsizlik, intuisiya, aqliy salohiyatning yetishmasligi va majburiy geteroseksuallik kabi xususiyatlarni o'z ichiga olib, ayollarni patriarxal tartibda ularga tayinlangan rol va vazifalarga bo'ysunishini ta'minlaydi. Syerbara va hammualliflar (2022) tomonidan olib borilgan yaqin oradagi tadqiqotlar gender stereotiplar keng tarqalganini va ularni bolalikdayoq kuzatish mumkinligini ko'rsatdi. 8-11 yoshli bolalar ishtirok etgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, hatto yoshlikdanoq bolalar jinsiy rollarni o'zlashtiradi va o'z jinsiy identichligini jamiyat intizomlariga muvofiq shakllantiradi. Ular ayollarni layoqati past va mustaqil deb tasvirlaydigan, erkaklarni esa hissiylik va ifodalikdan mahrum deb ko'rsatadigan stereotiplarni passiv qabul qiladi.

Jins ijtimoiy qurilma bo'lib, biologik funksiya bilan bog'liq bo'lmagani uchun ham sisgender, ham transgender ayollar uning zulmini his qiladi. Shuningdek, zulmning kesishmaligi (Crenshaw, 1991) jins, sinf va gender yo'nalish uning og'irligini yanada kuchaytiradi. Yan Morris o'z avtobiografiyasida erkakdan ayolga aylanish jarayoni haqida shunday yozgan: «Men qanchalik ko'p ayol sifatida muomalaga tortilsam, shunchalik ko'proq ayolga aylanar edim... Men shuni kashf etdimki, hatto hozir ham erkaklar ayollarni o'zlaridan pastroq qobiliyatli, kamroq so'z egasi va albatta o'z manfaatlariga sust e'tibor qaratadigan bo'lishini istar ekan; shuning uchun ko'pincha ularga ko'nardim» (Morris, 1974). Jamiyatda trans ayollarga nisbatan adovat maskulinlikni «ko'proq kuchli va tabiiy», feminalikni esa «kuchsiz va sun'iy» deb qabul qilishdan kelib chiqadi (Serano, 2019, Brogaard, 2020 orqali, 94-bet). Ichki mizoginiyani sisgender hamda transgender ayollar birdek boshdan kechirishlari mumkin, chunki barcha ayollar patriarxatda «omon qoluvchilar»dir;

ular o'z jinsi bilan bog'liq narsalar qadrsizlanadigan jamiyatda ayol bo'lgani uchun muayyan qiyinchiliklarga duch kelgan (Worell & Remer, 1996).

Mizoginiya, ya'ni ayollarga nisbatan chuqur nafrat va adovat jamiyat tuzilmalariga singib ketgan madaniy amaliyot sifatida ishlaydi. U patriarxal hokimiyat dinamikasini saqlab qolish va mustahkamlash uchun kuchli vosita sifatida xizmat qiladi. Findley va Piggot (2005) ta'kidlaganidek, mizoginiya hukmron erkaklar guruhi kuchini qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi, ayollarning ezilishi va tobe qilinishi orqali patriarxal tizimni saqlaydi. Jamiyatda ayollarning qiymatsizlanishi tizimli tarzda amalga oshirishi patriarxal gegemoniyaga nafaqat mavjud hokimiyatni saqlab qolish, balki uni doimiy ravishda kengaytirish va mustahkamlash imkonini beradi (Worell & Remer, 1996). Mizoginiya turli mexanizmlar orqali erkaklar ustunligini kuchaytiradi, ayollarni esa chetlatib, ularni kuchsizlantiradi. Natijada, ayollar ko'pincha tobe rollarga mahkum etiladi, resurslar, imkoniyatlar va qaror qabul qilish jarayonlaridan chetga suriladi, shu orqali erkaklar manfaati va nuqtai nazarini ustuvor qiladigan iyerarxik ijtimoiy tartib doimiy ravishda qayta ishlab chiqiladi.

Shuni anglash muhimki, mizoginiya patriarxal tizimlarning tasodifiy oqibati emas. Aksincha, u ularni saqlab qoladigan va mustahkamlaydigan asosiy mexanizm sifatida ishlaydi. Mizoginiya buni jinsiy rollarni majburiy qabul qildirish, erkak imtiyozlarini qonuniylashtirish, jinsiy asoslangan zo'ravonlikni oqlash, ayollar imkoniyatini cheklash va tizimli kamsitish hamda tengsizlikni davom ettirish orqali amalga oshiradi. Demak, mizoginiya jamiyatda ayollarning tobelik va ezilishini qayta-qayta abadiylashtiradi.

Ichki mizoginiya o'rganilgan seksistik xulq-atvorni o'zlari va boshqa ayollarga nisbatan qo'llaganda yuzaga chiqadi (Bearman va boshq., 2009). Bu esa ayollarning boshqa ayollarga nisbatan mizoginistik munosabatlarni qayta ishlab chiqishiga olib keladi, shu tariqa ular o'z jinsiga qarshi gorizontaal zulm orqali markaziy erkak madaniyatini mustahkamlaydilar.

Ichki mizoginiya ayollar eziladigan va tengsizlik ustun bo'lgan jamiyatni saqlashga xizmat qilgani uchun uni anglash, hal etish va qarshi turish juda muhim hisoblanadi.

## **Zulm va mizoginiya**

Zulm - bir guruh ikkinchi guruhga nisbatan ko'proq hokimiyat va imtiyozlarga ega bo'lib, uni ushlab qolish uchun hukmronlik orqali mavjud holatni saqlab qolganda yuzaga keladi (David, 2014). Bu tengsiz kuch dinamikasi bilan belgilanadi, unda bir guruhning boshqasi ustidan hukmronligi tobelikka yoki qarshilikka olib keladi. Hukmron guruhlar o'z kuchini resurslarga kirish imkoniyatini cheklash va tobe guruhlarda qo'rquv yoki pastkashlik hissini shakllantirish orqali amalga oshiradilar (Prilleltensky & Gonick, 1996). Kuch va resurslarning bunday tengsiz taqsimlanishi

zulm ko‘radigan guruhning imkoniyatlari va hayotiy imkoniyatlarini cheklaydi, shu bilan birga hukmron guruhning afzalliklari va imtiyozlarini mustahkamlaydi. Zulm irq va etnik mansublik, jins, sinf, gender yo‘nalish yoki jismoniy qobiliyat kabi turli ijtimoiy omillar va kesishuvchi afzallik bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu kesishuv bir nechta ezilgan guruhlariga mansub shaxslar uchun marginallashtirishni kuchaytiradi, chunki ular o‘z aylanmalari kesishuviga qarab zulmni turlicha tajriba qiladilar.

Mizoginiya ayollarga yo‘naltirilgan salbiy munosabat, nafrat va adovat sifatida ta’riflanadi. U og‘zaki, ijtimoiy va madaniy ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin va maskulinlik hamda feminalik tushunchasida chuqur ildiz otadi (Gargam & Lançon, 2020). Mizoginiya tarixi qadimgi Yunonistonga borib taqaladi. Masalan, yunon mifologiyasidagi Xarpiyalar, Furiyalar, Gorgonalar yoki Sirenalar ayollarning yovuz tabiati ifodasi sifatida ko‘rsatiladi. Ular erkaklarni halokatga olib boradigan qo‘rqinchli va halokatli mavjudot sifatida tasvirlangan (Gargam & Lançon, 2020). Yunon faylasuflari ham ayollarni erkaklarga nisbatan kuchsiz, aql jihatidan past va oz fazilatli deb hisoblashgan. Bu Aristotelning quyidagi so‘zlarida yaqqol ko‘rinadi: «Erkak tabiatan ustun, ayol esa past; erkak hukmron, ayol esa tobe» (Aristotle, 1944, 1.1254b).

O‘rta asrlarda ayollarni salbiy tarzda tasvirlaydigan mizoginistik ritorika yanada mustahkamlandi. G‘arb an’anasiga uyg‘un holda ko‘pgina o‘rta asr matnlari ayollarni yovuzlik, zulmat, nuqson, ifloslik, shahvat, aldov, kasallik va erkaklarning halokatining manbai bilan bog‘lab ko‘rsatdi (Caballé, 2019). Bibliyada ham Adam va Yevaning «gunohi asl» haqidagi mif barcha ayollarni shayton bilan tenglashtirish va ularni erkaklar azob-uqubatlari aybdor qilish uchun ishlatilgan. O‘rta asrlarda Bibliyaning katta ta’siri jamiyatda mizoginistik ishonchlarni mustahkam o‘rnatishda hal qiluvchi rol o‘ynadi (Bosch va boshq., 1999). G‘arb tarixi davomida, Aristoteldan to Freydgacha, ayollar barcha jihatlarida erkaklardan past degan ishonch umumiy qabul qilingan me’yor bo‘lib kelgan (Bosch va boshq., 1999). U ayollar ustidan nazorat va zulmni oqlash vositasi sifatida xizmat qilgan. Bundan tashqari, ushbu g‘oyalar zamonaviy fanlar rivojlanishiga chuqur singib ketgan va tabiiydek taqdim etilgan, shu orqali jamiyatda ayollarning tobe maqomi oqlanib kelgan.

Mann (2019) ta’kidlaganidek, mizoginiyani siyosiy hodisa sifatida anglash mumkin. Aniqroq aytganda, mizoginiya patriarxal ijtimoiy tartib ichida faoliyat ko‘rsatadigan keng tarqalgan tizim bo‘lib, u ayollarning tobeligini nazorat qilish va mustahkamlashga xizmat qiladi hamda erkaklar hukmronligini qo‘llab-quvvatlaydi (Manne, 2019). Shu bois u ham holat, ham jarayon bo‘lib, zulmning ham psixologik, ham siyosiy o‘lchamini o‘z ichiga oladi.

Brogaard (2020) mizoginiyani ikki toifaga ajratadi: nafratga asoslangan va mensimaslikka asoslangan. Uning ta’kidlashicha, mizoginiya tabiatan barcha ayollarga qaratilmaydi, balki patriarxat me’yorlariga qarshi chiqqan ayollarga

qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun tarixiy ideal feminalikka mos kelmaydigan va an'anaviy g'amxo'rlik, tarbiya va tobelik roldan chiqib ketgan ayollar nafratga asoslangan mizoginiya qurboni bo'ladilar (Brogaard, 2020). Mensimaslikka asoslangan mizoginiya esa ayollar haqidagi umumiy jinsiy stereotiplarda ko'rinadi: ular tabiatan past, axloqan buzuvchi, layoqatsiz yoki johil deb qaraladi (Brogaard, 2020).

Zamonaviy postmodern neoliberal jamiyatimizda mizoginiya avvalgidek oshkora namoyon bo'lmasligi mumkin, ammo uning mavjudligi hali ham keng tarqalgan. Buning yaqqol misoli sifatida 2017 yildagi #MeToo harakatidan keyingi yillarda feministik harakatga nisbatan kuchli qarshi chiqishni ko'rsatish mumkin. Hukmron patriarxal tartib tomonidan yo'lga qo'yilgan kuchli qarshilik feminizmning qadrsizlanishiga va an'anaviy konservativ me'yorlar hamda qonunchilikning qayta tiklanishiga olib keldi. Demokratik va adolatli jamiyatga erishish maqsadida feministik harakat hamda boshqa progressiv qiymatlarga bo'lgan xavotir gegemon neoliberal kuchlarni hukmronlik uchun kurashga qayta turti (Riutort, 2021). Faludi (1991) ta'kidlaganidek, antifeministik reaksiya ayollar tenglikka erishgani uchun emas, balki ularning tenglikka erishish imkoniyati paydo bo'lgani uchun kelib chiqqan.

O'ng qanot va konservativ guruhlar o'z nutqlari va amaliyotlarini tartib va hokimiyat, xavfsizlik va ma'naviyat, shuningdek, patriarxal oila va tartib ahamiyati atrofida g'oyalarni ilgari surish orqali mustahkamladilar. Ular uchun bu «xavfli progressiv yangi madaniyat»ga qarshi javob hisoblanadi (Riutort, 2021, 68-bet). Bu juda xavflidir, chunki u jamiyatimizdagi demokratik qiymatlar va inson huquqlariga to'g'ridan-to'g'ri tahdid soladi. Patriarxal oilaviy tuzilmalarni targ'ib qilish mavjud jinsiy me'yorlarni mustahkamlaydi: erkaklar asosiy moddiy ta'minlovchi va hokimiyat sohibi sifatida ko'riladi, ayollar esa uy ishlariga mahkum qilinib, g'amxo'rlik va uy yumushlarini qilishga majbur qilinadi. Natijada, bu jinsiy tengsizlikni saqlab qoladi, ayollarning ta'lim, ish imkoniyatlari va qaror qabul qilishdagi ishtirokini cheklaydi. An'anaviy jinsiy rollarning abadiylashuvi nafaqat ayollar mustaqilligini cheklaydi, balki erkaklarni kuch va imtiyoz mavqeiga qo'yadigan ijtimoiy iyerarxiyani ham mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, konservativ guruhlar ko'pincha ayollarning reproduktiv huquqlarini cheklaydigan siyosat va qonunlarni qo'llab-quvvatlaydilar, masalan, kontrasepsiya, abort va to'liq jinsiy ta'limga kirishni cheklaydilar. Bu ayollarning mustaqilligi va tanasi ustidan nazorat huquqini buzadi, ularga o'z tanasi va reproduktiv salomatligi haqida qaror qabul qilish huquqini inkor etadi. An'anaviy jinsiy rollar va patriarxal oilaviy tuzilmalarning mustahkamlanishi shuningdek, jinsiy asoslangan zo'ravonlikning normallashtirishiga hissa qo'shadi, chunki bu ideologiyalar oila ichida erkak hokimiyati va nazoratini oqlaydi hamda bunday zo'ravonlikni kechiradi yoki inkor qiladi. Bu esa jazosizlik madaniyatini saqlab, jabrlanuvchilar ovozi o'chiradi.

Natijada, o'ng qanot ritorikasi ko'pincha LGBT shaxslar va oilalarni «an'anaviy bo'lmagan»ligi uchun inkor qiladi, shu tariqa ularning kamsitilishi va marginallashtiruvini davom ettiradi. Avtoritar va konservativ guruhlar LGBT huquq tashabbuslariga masalan, nikoh tengligi va kamsitishga qarshi qonunlarga qarshi chiqish va ularni geteroseksual va sissgender shaxslarga berilgan huquq va himoyalardan mahrum qilish tarixiga egadir.

Mizoginiya inson hayotining turli sohalariga singib ketgan bo'lib, patriarxal ijtimoiy tartib va mavjud hokimiyat dinamikasining asosiy kuchlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Uning ko'rinish darajasi turli madaniyatlar, dinlar bo'yicha farq qilishi, shuningdek, sinf, irq, jinsiy yo'nalish yoki identichlik bilan bog'liq boshqa zulm shakllari bilan kesishishi mumkin. Mizoginiyaning har tomonlama mavjudligi jamiyatning turli sohalarida - san'at, ta'lim, siyosat, fan va umumiy qiymatlarda yaqqol ko'rinadi. Mizoginiyasiz patriarxal gegemoniya kuchsizlanardi, shuning uchun hukmron tizim aholining bir qismi ustidan nazoratni saqlab qolish uchun bu zulmni tizimli ravishda davom ettirishi kerak. Shu sababli patriarxatni saqlab turgan kuchlar feministik harakatga nisbatan juda tajovuzkor va yovuz munosabatda bo'ladi. Feminizm patriarxal tizim uchun haqiqiy tahdiddir, chunki u uning tuzilmalarini shubha ostiga qo'yadi va tanqid qiladi, uzoq vaqt davomida e'tiborsiz qoldirilgan tengsizlik va adolatsizliklarni ochib beradi. Shuningdek, u ayollarni quvvatlantiradi, ularning zulmdan xabardor bo'lishini ta'minlaydi va unga guruh sifatida qarshi turish vositalarini beradi. Dvorkin (1983) ta'kidlaganidek, feminizm siyosiy falsafa sifatida yomon ko'riladi, chunki u ayollarning ozodlik harakatini ifodalaydi, antifeminizm esa mizoginiyaning bevosita ifodasidir. Boshqacha qilib aytganda: «Feminizm yomon ko'riladi, chunki ayollar yomon ko'riladi» (Dworkin, 1983, 195-bet).

### **Mizoginiya va seksizm**

Mizoginiya va seksizm atamaları ko'pincha bir-birining o'rnida ishlatiladi, garchi ayrim olimlar ularni farqli deb hisoblasada, boshqalar ularni bir tanganing ikki tarafi deb ta'kidlaydi. Mann (2019)ga ko'ra, mizoginiyani patriarxal tizimning ijro organi sifatida tushunish mumkin, u mavjud me'yorlar va intizomlarni tartibga solish va qo'llab-quvvatlash uchun javobgardir. Seksizm esa patriarxatning ideologik tarkibiy qismi sifatida qaralishi mumkin, u erkak hukmronligiga asoslangan ijtimoiy me'yor va munosabatlarni oqlaydi va asoslaydi (Manne, 2019). Mohiyatan, mizoginiya ayollar erkaklardan past va shu sababli ularga shunday munosabatda bo'lish kerak degan asosiy ishonchni ifodalasa, seksizm ushbu ishonchning ko'zga ko'rinadigan namoyon bo'lishidir.

Shu bilan birga, Brogaard (2020) ta'kidlaydiki, Mannning nazariyasi va ta'rifi nafratga asoslangan mizoginiyaga taalluqli bo'lsa-da, u mensimaslikka asoslangan mizoginiyani to'liq qamrab olmaydi. Shuning uchun u mizoginiya va seksizmni kesishuvchi toifalar deb hisoblaydi (Brogaard, 2020). Shuni qayd etish kerakki,



«mizoginiya» atamasi ilk bor XVII asrda paydo bo'lgan (Merriam-Webster, n.d.), «seksizm» esa ayollarga nisbatan hurmatsiz munosabatni anglatib, 1965 yilda Franklin va Marshall kollejida tahsil olgan Polina M. Lit tomonidan yaratilgan (Shapiro, 1985). Shuning uchun Brogaardning ta'kidlashicha, seksizm va mizoginiya mutlaqo qarama-qarshi emas, balki o'xshashlikka ega: mizoginiya - bu ayollarga nisbatan nafrat yoki mensimaslik bilan tavsiflanadigan seksizmning bir ko'rinishidir (Brogaard, 2020).

Seksizm ham erkaklarga, ham ayollarga ta'sir qilishi mumkin, u jinsiy stereotiplar kabi turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bu stereotiplar shaxslarning jinsiga qarab ulardan kutilgan xatti-harakatlarga ta'sir ko'rsatadigan noto'g'ri ishonchlar va qarashlar bilan tavsiflanadi. Natijada, ushbu me'yorlardan og'ish ijtimoiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Biroq mizoginiya faqat ayollarning o'zini nishonga oladi, chunki u feminalik va ayollarga nisbatan chuqur adovatga asoslanadi. Richardson-Self (2018) ta'kidlaganidek, seksizm «oqlovchi tarkibiy qism»ga ega bo'lib, u erkaklar tabiatan ayollardan ustun degan ishonch uchun asos yaratadi va shu orqali patriarxal jinsiy iyerarxiyani ideallashtiradi hamda qo'llab-quvvatlaydi. Mizoginiya esa «adovatning tarkibiy qismi» bilan tavsiflanadi (Richardson-Self, 2018). Shu asosga ko'ra, seksizm ikki shaklga bo'linadi: «in'om» va «dushmanona». In'omdor seksizm mizoginiyaning go'yoki yaxshi niyatli va ijobiy ko'rinishini anglatadi, dushmanona seksizm uning tajovuzkor va salbiy ifodasi hisoblanadi (Glick & Fiske, 1996).

### **Ichki mizoginiya va o'zini yomon ko'rish**

Ayollarda ichki mizoginiya o'zlarining erkaklarga nisbatan pastligiga ishonish va teng huquqqa ega bo'lishlari insofsizlarcha rad etilishiga ishonuvchi ichki nafrat hissi sifatida namoyon bo'ladi (Bearman & Amrhein, 2014). Bu holat feminalik bilan bog'liq ijtimoiy intizomdan og'ishgan ayollarga nisbatan mensimaslik yoki adovat, shuningdek, ularning «tabiiy pastligi» va «iflos tabiati» to'g'risidagi asossiz fikrlarga asoslangan umumiy nafrat bilan kuchayadi (Brogaard, 2020). O'zini yomon ko'rish psixologik hodisasi turli marginal jamoalarda - yahudiylar va afroamerikaliklarda keng tadqiq etilgan. Masalan, Ikkinchi jahon urushi davrida yahudiylar orasida o'zini yomon ko'rish holati keng tarqalgan bo'lib, ko'plari o'z jamoasini tark etgan va ayrimlari hatto Germaniyadagi nasistik rejimni qo'llab-quvvatlash uchun yahudiy guruh tashkil etgan (Lewin, 1948). Xo'sh, shu kabi holatlar qora tanli jamoa ichida ham o'rganilgan. Jost va Banaji (1994) mavjud hokimiyat tuzilmalarini oqlash mexanizmi sifatida stereotiplarning ahamiyatini qayd etadi. Hukmron kuch dinamikasini asossiz ong orqali oqlaydigan stereotiplarni ichkilashtirish natijasida ezilgan guruhlarda o'zini yomon ko'rish va o'z guruhiga nisbatan kamsitish holatlari kuzatilgan, shu tariqa tizim oqlangan va gegemon qoidalarga itoat qilingan.

Shuning uchun o'zini yomon ko'rish marginal guruhlarda jamiyat tomonidan ularga tiqib qo'yilgan ezuvchi me'yorlarni ichkilashtirish va ularga itoat qilish natijasida yuzaga keladigan psixologik hodisadir. Levin (1948) ta'kidlaganidek, noqulay ahvoldagi guruh a'zolari o'z ijtimoiy guruhida qolishga majbur bo'ladi, bu esa adovat va uyatni kuchaytiradi. Ular hukmron va imtiyozli guruhni juda kuchli deb ko'rishadi va unga qarshi chiqishga ojiz deb hisoblaydilar, natijada o'z agressiyasini o'z guruhiga yoki o'zlariga yo'naltiradilar. Kovan va hammualliflar (1998) ta'kidlaganidek, ezilgan guruh a'zolari ko'pincha muammolar manbasini o'zlarining «yetishmovchiliklari»dan deb hisoblaydilar, bu esa norozilikning o'zlaridan o'z guruhlariga ko'chishiga olib keladi. Xuddi shunday, jamiyatda feminalik bilan bog'liq salbiy stereotiplar sababli ayollar o'zlaridan norozi bo'lganda, bu norozilik boshqa ayollarga ham ko'chishi mumkin (Cowan va boshq., 1998).

Ayollar aholi soni jihatdan ko'pchilikni tashkil etsa-da, patriarxal tizimda marginal maqom va tobelik holatida bo'lgani uchun «ko'pchilik-ozchilik» (majority-minority) sifatida qaraladi. Vitrning ta'rifiga ko'ra, ozchilik guruh shunday izohlanadi: «Jismoniy yoki madaniy xususiyatlari sababli ular yashaydigan jamiyatda boshqalardan ajratib ko'rsatiladigan, tengsiz munosabatlarga duch keladigan va shuning uchun o'zini jamoaviy kamsitish ob'yekti deb hisoblaydigan har qanday odamlar guruhi» (Wirth, 1945, Hacker, 1951 orqali, 60-bet). Shuning natijasida, ayollar ezilgan guruhga mansub bo'lgani uchun ichki mizoginiyani boshdan kechiradilar va buni hukmron guruhning ular haqidagi stereotipik qarashlarini qabul qilish hamda o'z guruhidagi boshqa a'zolari past ko'rish orqali ifodalaydilar. Jamiyatdan kelib tushadigan xabarlar va ularning past maqomini ta'kidlaydigan kundalik muloqotlarga qayta-qayta duch kelish ayollarni ushbu ishonchni haqiqiy voqelik sifatida qabul qilishga olib keladi (Hacker, 1951). Natijada, ayollar o'z qadr-qimmatini pasaytiradilar (Cowan va boshq., 1998) va o'zini kamsitish sikllarini davom ettiradilar, bu esa ularga nisbatan amal qilayotgan tizimli zulmni yanada mustahkamlaydi.

Gegemon patriarxal tizimda ayollar «ojiz jins» sifatida qabul qilinadi va haqiqiy hokimiyatdan mahrum bo'ladi. Shu sababli, ko'pincha ular ahamiyat va maqsad topish uchun erkak qiymatlarini qabul qiladilar (Dworkin, 1983). O'zlarini himoya qilish uchun ko'plab ayollar jamiyatdagi ezilgan maqomini yoki inkor qiladi yoki oqlaydi. Bu moslashuv mexanizmlari ularni haqiqat bilan yuzlashishdan saqlaydi va boshlariga tushayotgan adolatsizliklarni oqlaydi. Dvorkin (1983) ta'kidlaganidek, ayollar ko'pincha patriarxat buyruqlariga itoat qiladi va uning qiymatlarini ichkilashtiradi, chunki «hokimiyatsizlar hokimiyatlilarga muhtoj». Erkak intizomlariga va patriarxal iyerarxiyaga moslashib, ayollar qisqa muddatli psixologik yengillik his qilishlari mumkin, ammo ular o'z ezilishini davom ettiradilar va mavjud holatni saqlab qoladilar. Shu bois ko'plab ayollar ichki mizoginiyaga ruhiy himoya mexanizmi sifatida murojaat qiladilar, bu esa ularga ezilish bilan belgilangan dunyoda yashashga yordam beradi. Ular o'zining pastligiga

ishonchni o'zlashtiradi va ayrim ayollar bu tashvishli hisni shubha ostiga qo'ysa-da, boshqalar uni inkor qiladi yoki e'tiborsiz qoldiradi (Millett, 2000).

Ayollarning mizoginiya asosida bir-biriga nisbatan adovati ularning umumiy kurashiga ham to'siq bo'ladi, chunki u hamkorlikka emas, raqobatga turtki beradi va ayollarga nisbatan zo'ravonlikni oqlaydigan va e'tiborsiz qoldiradigan afsonalarni mustahkamlaydi (Cowan va boshq., 1998). Bu holatni ijtimoiy tarmoqlarda ko'p uchraydigan «jabrlanuvchini ayblash» xatti-harakatlarida yaqqol ko'rish mumkin. Masalan, zo'rlash yoki o'ldirish qurbonlari boshqa ayollar tomonidan «erkaklarning tajovuzkor xatti-harakatini qo'zg'atgan», «jazoga munosib bo'lgan» deb ayblanadi. Tadqiqotlar shuningdek, seksistik ishonchlar va zo'rlash haqidagi gaplarni qabul qilish darajasi ham erkaklar, ham ayollarda kuchli bog'liqlikka ega ekanini ko'rsatgan (Angelone va boshq., 2021).

Oxir-oqibat, mizoginiya patriarxat ichida ayollar ustidan nazorat tizimi sifatida ishlaydi va uning qoidalariga itoat etmaganlar jazolanadi. Bu nazorat mexanizmi jamiyat tuzilmalariga chuqur singib ketgan bo'lib, zararli jinsiy me'yorlarni mustahkamlaydi va ayollar mustaqilligini cheklaydi. Bu me'yorlarga qarshi chiqish oqibatlaridan qo'rqish ko'pincha ayollarni ezuvchi standartlarga itoat qilishga majbur qiladi, shu bilan mizoginiya sikllarini yanada mustahkamlaydi. Seksizm va mizoginiyani qo'llab-quvvatlab, ayollar o'z past maqomini saqlaydilar (Becker, 2010) va mavjud holatni abadiylashtiradilar. Shu sababli, ichki mizoginiya qanday ishlaydi va ayollarning hamkorlik qilishlariga to'siq qo'yadigan omillar nimalar ekanini anglash muhimdir. Ushbu to'siqlarni tan olish va hal etish orqali ayollar kuchliroq ittifoqlar tuzishlari, ovozlarini kuchaytirishlari va o'z ezilishlarini abadiylashtirayotgan tizimlarga birgalikda qarshi chiqishlari mumkin.

### **Ichki mizoginiya qanday ishlaydi?**

Chesler (2001) ta'kidlashicha, ichki mizoginiya qanday ishlashini anglash uchun ayollarni erkaklardan kamroq seksist deb hisoblamaslik va ularni ideallashtirmaslik muhim. Aksincha, ayollarni «ham shafqat, ham shafqatsizlik, ham hamkorlik, ham raqobat, ham egoizm, ham fidokorlikka qodir insonlar» sifatida qabul qilish zarur (Chesler, 2001, 21-bet). Buni tan olish ichki mizoginiyaning murakkabligini anglash va uning keng tarqalgan ta'sirini yo'q qilishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu hodisaning ko'p qirrali mohiyatini anglab, ayollar vaqt o'tishi bilan ichkilashgan og'ishlar va zararli ishonchlarga qarshi kurashishni boshlaydilar.

Ichki mizoginiya ayollarda turli xil xatti-harakatlarda kuzatilishi mumkin. Beyrman va Amrxayn (2014) uning olti turdagi ko'rinishini ta'riflaydilar:

- **Hokimiyatsizlik** - ayollar o'zini haqiqatdagidan ko'ra ko'proq cheklangan va kamroq qobiliyatli deb hisoblashi.

- **Obyektlashtirish** - ayollar o'zini tashqi ko'zlar bilan kuzatilayotgan tana sifatida ko'rishga o'rganishi.
- **O'zligini yo'qotish** - ayollar o'z ehtiyoj va istaklarini tan olmasligi yoki ularni qurbon qilishi.
- **Inkor etish** - ayollar o'z hissiyot va fikrlarini, ayniqsa, ular erkak standartlariga mos kelmasa, ahamiyatsiz deb hisoblashi.
- **Tahqirlash** - ayollar tanqiddan jinsiy rollarni nazorat qilish vositasi sifatida foydalanishi.
- **Ayollar orasida raqobat** - seksizm orqali yuzaga kelgan resurslar kamligi va qiyinchiliklar uchun aybni boshqa ayollarga yuklashi (Bearman & Amrhein, 2014).

Bu ro'yxatga qo'shimcha qilib, jinsiy rollarni passiv qabul qilish ham kiritilishi mumkin (Dehlin, 2019).

Ichki hokimiyatsizlik «o'rganilgan ojizlik» psixologik hodisasi bilan bog'lanishi mumkin (Rosellini & Seligman, 1976). Bu holatda insonlar salbiy voqealarga qayta-qayta duch kelgandan so'ng yechim mumkin bo'lgan vaziyatlarda ham passiv taslimlikni boshdan kechiradilar. O'rganilgan ojizlikka duch kelgan ayollar o'zini haqiqatdagidan kuchsiz deb hisoblaydi va yangi ko'nikmalarni yoki nufuzli rollarni egallashni talab qiluvchi faoliyatlarga kam qiziqish bildirishadi. Bu xatti-harakat inkor etish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib, ya'ni ayollar o'z fikrlari yoki yutuqlarini patriarxal tizimda ahamiyatsiz deb hisoblashga moyil bo'lishadi. Bu holat ilm-fan yoki nufuzli lavozimlarda ayollarning kamroq namoyon bo'lishini to'liq tushuntirib bermasa-da, ular orasida «imposter sindromi» (o'z yutuqlarini arzimaydi deb his qilish)ning keng tarqalishiga hissa qo'shishi mumkin (Edwards, 2019).

Obyektlashtirish tushunchasini ilk bor Simona de Bovuarning «Ikkinchi jins» asarida bayon qilgan. Unda ayollar o'zini asosan erkak nuqtai nazaridan qabul qilishi haqida so'z boradi, bu jarayon «erkakcha nazar» deb ataladi (De Beauvoir, 1949). Bu jarayon insonning o'z tanasini boshqalar qanday ko'rishini anglash va shu bilan birga o'zining ichki tajribalarini e'tiborsiz qoldirish orqali namoyon bo'ladi. Buning natijasida, o'zini ob'yektlashtiruvchi ayollar o'z qadrini faqat tashqi ko'rinishlari bilan chegaralaydilar (Breines va boshq., 2008).

O'zini seksuallashtirish esa obyektlashtirish bilan bog'liq hodisa bo'lib, ayolning o'zini qanday his etishi uning tashqi jozibadorligiga qarab shakllanadi. Bu amaliyot ayolning o'zidan uzilishini kuchaytiradi, chunki u faqat tanani mavjud hisoblab, ichki olamni his qilish muhim emas, degan qarashni mustahkamlaydi (Bearman & Amrhein, 2014). Ijtimoiy tarmoqlar davrida o'zini ob'yektlashtirish va seksuallashtirish yosh qizlar hayotida tobora keng tarqalmoqda. Ular o'z qadrini rasm va videolar orqali tashqi ko'rinishlari bilan bog'lab qo'ymoqda. Shuni alohida qayd etish kerakki, neoliberal kapitalistik tizimda bunday xatti-harakat ko'pincha

ayollar uchun «quvvatlanish» shaklida ko'rsatiladi, garchi u seksistik jinsiy rollarni va ezuvchi tuzilmalarni mustahkamlasa-da.

«O'zligini yo'qotish» hodisasi ayollar o'z ehtiyojlaridan ko'ra boshqalarning ehtiyojlarini ustun qo'yganda namoyon bo'ladi. Bu xatti-harakat ayniqsa onalar orasida ko'p uchraydi, ular ko'pincha bolalariga qarash uchun ish joyini ixtiyoriy tark etadi yoki ish soatlarini qisqartiradi. Deloitte'ning 2023 yilgi Women @ Work Survey tadqiqotiga ko'ra, ayollar hali ham uydagi bola parvarishiini 46%i uchun mas'ul, erkaklar esa atigi 34%i uchun (Parmelee & Codd, 2023). Shuningdek, so'rovda qatnashganlarning uchdan biri o'z kasbiy faoliyatidan ko'ra turmush o'rtog'ining ishini ustun, deb hisoblaydi. Bu sharoitlar ayollarni quyi maoshli, noaniq ish o'rinlariga mahkum etadi, ko'pincha ularni parvarish sohasiga yo'naltiradi va natijada ularning nafaqalari kamayadi hamda «kambag'allikning feminizatsiyasi» deb ataladigan hodisani davom ettiradi.

Tahqirlash va boshqa ayollar bilan raqobat ichki mizoginiyaning eng ko'zga ko'rinadigan jihatlaridir, chunki ular to'g'ridan-to'g'ri boshqalarga qaratilgan xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi. Shu bois, ichki mizoginiyaning eng ko'p tahlil qilingan ifodasi ham shu hisoblanadi. Bu haqda ko'plab kitoblar yozilgan, masalan: Woman's Inhumanity to Woman (Fillis Chesler), Right-Wing Women va Woman Hating (Andrea Dworkin), Down Girl (Keyt Mann). Ushbu asarlar ichki mizoginiyaning turli shakllari, ko'rinishlari va oqibatlarini ko'rsatish orqali uning jamoatchilik tomonidan yaxshi anglanishiga hissa qo'shadi. Ayollar seksistik amaliyotlarda qanday ishtirok etishi va ularni qanday davom ettirishini ko'rsatib, bu asarlar jins va hokimiyat haqidagi mavjud afsonalarga shubha soladi va ayollar orasida mizoginiyaga qarshi kurashda ko'proq xabardorlik, hamdardlik va hamjihatlik zarurligini ta'kidlaydi.

Dushmanona seksizm turli ko'rinishlarda ifoda etiladi: tajovuzkor tildan foydalanish, seksistik haqoratlar, passiv-tajovuzkor xatti-harakatlar, jabrlanuvchini ayblash va inkor etish. Bu turdagi xatti-harakat jamiyat va madaniyat ta'sirida chuqur singib ketgan mizoginistik ishonch va qiymatlarni o'zlashtirgan ayollar orasida ko'proq uchraydi. Bu hodisaning yaqqol misolini umri davomida seksistik kamsitishga duch kelgan keksa ayollarda ko'rish mumkin. Ular ko'pincha tenglik uchun kurashayotgan yoki ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi chiqishga harakat qilayotgan yosh qizlarni tanqid yoki haqorat qiladi (Chesler, 2001). Ular hayoti davomida ma'lum xatti-harakatlarni qabul qilgan va oqlab kelganlari uchun bu mizoginiya ularning o'z xatti-harakatlariga singib ketgan.

Evolyusion nuqtai nazardan qaraganda ham, ayollar ko'proq bilvosita tajovuz shakllarini rivojlantirgani, xavfi past usullarni qo'llagani ta'kidlanadi. Bularga gap-so'z tarqatish yoki kimnidir chetlatish kabi usullar kiradi, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri jismoniy tajovuz o'rniga xulqni nazorat qilish vositalari ishlatiladi. Shuningdek, ayollarda erkaklarga nisbatan og'zaki tajovuz darajasi yuqoriroq bo'lishi qayd

etilgan (Chesler, 2001). Bu xatti-harakatlar ko'p ayollar ishongan ichki mizoginiyadan oziqlanadi. Natijada, ular zararli va og'riqli bo'lishi mumkin, jamiyatdagi an'anaviy jinsiy rollarga qarshi chiqqan yoki seksizmga qarshi gapirgan ayollar uchun zaharli muhit yaratadi. Xulosa qilib aytganda, ayollarning tajovuzi ko'proq yashirin va yumshoq ko'rinishlarda namoyon bo'ladi, lekin u jamiyat omillari ta'sirida shakllanib, gender tengligi uchun salbiy muhit yaratadi.

Ichki mizoginiyaning yana bir namoyoni ayollarning erkaklarga nisbatan boshqa ayollarga ko'proq ishonchsizlik bilan qarashlarida ko'rinadi. Bu paradoksal holat tarixan ayollarning shikoyatlari va tashvishlari «hayoliy, chalkash va yolg'on» deb baholanib, rad etilib kelgani bilan izohlanadi (Solnit, 2014). Erkaklarga ayollarga nisbatan ustunlik berish va erkak kasblari, qadriyatlari yoki ijtimoiy me'yorlariga ko'proq ahamiyat qaratish ichki mizoginiyaning odatiy natijasidir. Jamiyatimizda tabiatan erkaklarni qo'llab-quvvatlaydi, ayollarning ehtiyojlari esa ko'pincha ikkinchi darajali deb qaraladi (Han va boshq., 2023).

Boshqa ayollarga nisbatan adovat va ishonchsizlik ayollar hamjihatligini yo'qotadi va mavjud holatni saqlab qoladi. Ayollar boshqa ayollarga ishonmaganda, hamjihatlik va jamoaviy harakat imkoniyatlari zaiflashadi va jinsiy tenglik, shuningdek, seksizm, kamsitish va ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashda zarur bo'lgan feministik harakat ro'yobga chiqmaydi. Ishonchsizlik mavjud bo'lsa, u munosabatlarni buzishi va bir-birini qo'llab-quvvatlash urinishlariga to'siq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, u erkaklar va ayollar o'rtasidagi mavjud kuch muvozanatsizligini ham mustahkamlaydi. Ayollar boshqa ayollarning tajriba va nuqtai nazarini shubha ostiga qo'yish orqali ayollarni chetga suradigan va ularning ovozini o'chiradigan patriarxal tuzilmalarni bilmasdan qo'llab-quvvatlashi mumkin, natijada jinsiy tengsizlik davom etadi va ayollar ezuvchi tizimlarga qarshi chiqish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

Bundan tashqari, ayollarning boshqa ayollarga ishonmaslik oqibatlari shaxsiy munosabatlardan tashqari keng ijtimoiy natijalarga ega. Masalan, ayollar bir-birini qo'llab-quvvatlash yoki himoya qilishdan tortinsa, bu turli sohalarda - siyosat, iqtisodiyot va ijtimoiy adolatda gender tengligiga erishish yo'lidagi taraqqiyotga to'siq bo'ladi. Tadqiqotlar shuningdek, feministlar, kasbiy faoliyat olib boradigan ayollar yoki ochiq-oydin jinsiy faol ayollarga nisbatan agressiya kuchayganini ko'rsatadi. Chunki ular patriarxal jamiyat va uning o'rnatilgan rol hamda me'yorlari uchun ko'proq tahdid sifatida qabul qilinadi. Aksincha, an'anaviy ayollar ushbu me'yorlarni mustahkamlovchi sifatida ko'riladi (Becker, 2010). Bu toifalardan og'ishgan shaxslar seksistik jamiyat me'yorlariga mos kelmagani uchun kattaroq ichki mizoginiyaga duch kelishi va shu sabab jazolanishi mumkin.

Brogaard (2020) ayollar orasidagi mizoginiyani to'rt toifaga ajratadi: «Puritanka, O'zini yomon ko'ruvchi, O'zini mensimas va Shayton Ayol». Puritanka ayollar an'anaviy feminalik rollaridan uzoqlashgan ayollarga adovat bilan qaraydilar; o'zini

yomon ko'ruvchi va o'zini mensimas ayollar ichki o'zini yomon ko'rishga berilgan va kognitiv dissonansni boshdan kechiradilar; Shayton ayollar esa o'zini boshqa ayollardan ustun va erkaklarga yaqinroq deb hisoblaydilar (Brogaard, 2020).

Xulosa qilib aytganda, ichki mizoginiya - bu ayollarning o'zlari patriarxal ishonch va munosabatlarni o'zlashtirish natijasida shakllanadi. U tashqi namoyon bo'lish va ichki his-tuyg'ular hamda xatti-harakatlarning keng ko'lamida ifodalanadi va jamiyat tuzilmalarida erkaklar hukmronligini mustahkamlaydi, shu tariqa ayollarning tizimli ezilishini patriarxal tuzilma doirasida saqlab qoladi.

Turli tadqiqotlar ichki mizoginiyaning ayollar ruhiy salomatligi uchun xavfli ekanini ko'rsatgan. Masalan, Shimanski va hammualliflar (2009) ichki mizoginiya va tashqi seksizm birgalikda kuzatilganda psixologik qiyinchiliklar bilan ijobiy bog'liqlikka ega ekanini aniqladilar. Internet orqali o'tkazilgan tadqiqot Daily Sexist Events Scale (Swim va boshq., 2001) asosida 274 geteroseksual ayol o'rtasida ichki mizoginiya, o'zini ob'yektlashtirish, an'anaviy jinsiy rollarni passiv qabul qilish va psixologik qiyinchiliklar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganildi. Tadqiqot natijalari Feministik terapiya nazariyasi tamoyillari (Worell & Remer, 1996) bilan uyg'un kelib, seksistik voqealar va ichki mizoginiya ayollarda psixologik qiyinchiliklarga olib kelishini ko'rsatdi (Szymanski va boshq., 2009).

Ayollarda o'zini ob'yektlashtirishning psixologik ta'sirini o'rgangan boshqa tadqiqotda MakKinli va Xayd (1996) uchta OBC shkalasi (Surveillance, Body Shame, Appearance Control Beliefs) hamda ovqatlanishga oid anketalarni qo'llab, tanani qadrlash va ovqatlanish buzilishlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgandilar. Bu tadqiqot natijalari seksizm va mizoginiyaga asoslangan tanani nazorat qilish yosh va o'rta yoshli ayollarda cheklovchi buzilgan ovqatlanish tartibi bilan bog'liq ekanini tasdiqladi (Moradi va boshq., 2005). Bu shuni anglatadiki, jamiyatning go'zallik standartlarini o'zlashtirgan va o'zini ob'yektlashtirgan ayollar ko'proq nosog'lom ovqatlanish xatti-harakatlariga moyil bo'ladilar. Mohiyatan, seksizm va mizoginiya ta'sirida shakllangan, erishib bo'lmaydigan ideallashtirilgan tanaviy standartlarga moslashishga bo'lgan kuchli bosim ayollarda sog'lom ovqatlanish odatlarining buzilishiga va salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bunday xatti-harakat natijasi nafaqat jismoniy salomatlikka, balki ruhiy holatga, ijtimoiy munosabatlarga va hayot sifatining umumiy darajasiga juda yomon ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ular tashqi ko'rinishni ruhiy sog'lomlik va o'zini qabul qilishdan ustun qo'yadigan jamiyat me'yorlarini davom ettiradi.

O'zini obyektlashtirish bilan shug'ullangan ayollarda o'z tanasini muntazam kuzatish va nazorat qilish kuchayadi. Bu xatti-harakat ularning tashqi ko'rinishga haddan tashqari diqqat qaratishlariga va «faoliyatda to'liq va samarali ishtirok etish uchun zarur bo'lgan diqqatni buzish»ga olib keladi (Breines va boshq., 2008, 583-bet). Tashqi qiyofani nazorat qilishga vaqt va kuch sarflagan ayollar boshqa

vazifalarga diqqatni kamroq qaratadi va o'zini «erkakcha nazar» orqali ko'rishga moyil bo'lib qoladi.

